

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ZUFAROVA ZULFIYA ULUGBEKOVNA

YUQORI HIMOYA XUSUSIYATLARIGA EGA BO'LGAN
KOMPONENTLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA GIDROKOSTYUM
FUNKSIONAL DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH

05.06.04- Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
кандидата (PhD) технических наук**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Zufarova Zulfiya Ulugbekovna

Yuqori himoya xususiyatlariga ega bo'lgan komponentlarini shakllantirish asosida
gidrokostyum funksional dizaynini ishlab chiqish 3

Зуфарова Зульфия Улугбековна

Разработка функционального дизайна гидрокостюма с повышенными защитными
свойствами на основе формирования его компонентов 25

Zufarova Zulfiya Ulugbekovna

Development of Functional Design of a Wetsuit with Enhanced Protective Properties Based
on the Formation of Its Components 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ZUFAROVA ZULFIYA ULUGBEKOVNA

YUQORI HIMOYA XUSUSIYATLARIGA EGA BO'LGAN
KOMPONENTLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA GIDROKOSTYUM
FUNKSIONAL DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH

05.06.04- Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.4.PhD/T5129 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Ilmiy-tadqiqot ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://itsi.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tashpulatov Salih Shukurovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdukarimova Mashxura Abduraimovna
texnika fanlari doktori, professor

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-auditoriya, Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17, e-mail: itli_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (241-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 28 may kuni tashqildi
(2025-yil "28" dagi 241-raqamli reestr baliqnomasi)



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi kotibi,
t.f.d., professor

N.R. Xanxadjayeva
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida to'qimachilik sanoati innovatsion materiallar va texnologiyalar ishlab chiqarishda rivojlanmoqda. Dunyo bozorida funktsional to'qimachilik mahsulotlariga talab yillik 7-10% ga oshib bormoqda, gidrokostyumlar kabi maxsus kiyimlarda chidamlilik, issiqlik izolyatsiyasi va ekologik barqarorlikka ega materiallardan foydalanish muhim yo'nalishga aylandi. Jahonda suv osti faoliyati, jumladan, professional diving, suv sporti, qutqaruv operatsiyalari va harbiy maqsadlarda gidrokostyumlarning yuqori ximoya xususiyatlariga ega funktsional dizaynini ishlab chiqish sohasi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida har yili millionlab odamlar suv osti faoliyati bilan shug'ullanishi va gidrokostyumlarning tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan (sovuq, bosim, mexanik shikastlanish) himoya qilishda muhim rol o'ynashini hisobga olsak, gidrokostyumlarning issiqlikdan himoya, chidamlilik va qulaylik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan yuqori ximoya xususiyatlariga ega komponentlardan foydalangan holda gidrokostyumlarning funktsional dizaynini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda maxsus kiyimlarning shaxsiy himoya vositasi sifatini sezilarli darajada yaxshilash, xususan, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish uchun innovatsion resurstejamkor texnologiyalar va yangi avlod xomashyolarini yaratish, ish rejimlarini optimallashtirish, tabiiy ekspluatatsiya sharoitida funktsional unumdorligini aniqlash va mahsulot konstruksiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, suv ostida amaliy mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun himoya vositasi sifatida maxsus kiyim - gidrokostyumlarning himoya funksiyalari samaradorligini oshirish va ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish, gidrokostyumni ekspluatatsiya qilish jarayoniga tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda neopren turidagi g'ovak materiallarning tuzilishini loyihalash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, real sharoitlarda ekspluatatsiya davriga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni past harorat, gidrostatik bosim va turli mexanik kuchlardan himoya qilish samaradorligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda keng turdagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish va sifatini yaxshilash, mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarishni chuqurlashtirish, jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida... "milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, sanoatda yo'qotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish..."¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni hal etishda paxta xom ashyosi ishlab chiqarishdan yuqori qo'shilgan qiymatli to'qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishgacha bo'lgan tarmoqning integratsiyasini ta'minlaydigan klasterni rivojlantirish modelini o'z-o'zini amalga oshirish muhim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi bozorda raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni kengaytirish, tikuvchilik sanoati uchun samarali texnika va texnologiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 2019-yil 10-apreldagi PF-5706-son "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-son "Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan; II. "Energetika, energiya va resurslarni tejash".

Muammoni o'rganganlik darajasi. Turli maqsadlarga mo'ljallangan kiyimlarni loyihalashga tizimli yondashuvni shakllantirish, "inson - kiyim - tashqi muhit" tizimi mezonlari va tamoyillariga muvofiq mahsulotlarni ishlab chiqish va tadqiq etish masalalari bilan xorijlik olimlar Wilhelm Huck, Hu Maganga, S. Kim, J. Lee, Ran-i Eom, Yejin Lee (Janubiy Koreya), Jiaqing Zhang (Xitoy), mexanik himoya uchun maxsus kiyimlarni loyihalash masalalari bilan Baoyu Zhu, Chengxun Sun, Shixiong Jiang, Makoto Akashi (Yaponiya), Quang Huy Tran, Van Quy Nguyen, Anh-Tuan Le (Vetnam), William W Nazaroff (AQSH), Azhar Ali Patrick (Hindiston) shug'ullanganlar. Ergonomik loyihalash tamoyillari asosida maxsus kiyimlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar S.Mattmann (AQSH), Z.Dragcevic, S.F.Rogale (Xorvatiya), A.Honglun, Liu Chi, M.S.Kennon, Hae-Chang Rim (Janubiy Koreya), E. Cubillos (Kolumbiya), Leite da Silva, S.Santos (Braziliya) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda turli soha xodimlari uchun shaxsiy himoya vositalarini loyihalashga tizimli yondashuvning metodologik asoslari shakllantirilgan.

Ushbu tadqiqot yo'nalishidagi muammolarni bartaraf etishga katta hissa qo'shgan olimlar, E.X.Melikov, E.B.Koblyakova, R.F.Afanasyeva, Laurel R.Davis, P.P.Koketkin, Z.S.Chubarova, V.E.Romanov, M.I.Sukharev, E.Ya.Surzhenko, V.E.Kuzmichev, I.V.Churunova, S.Sh.Tashpulatov, S.K.Lopandina, B.R.Ryskulova, R.O.Zhilisbaeva, M.A.Nurzasarova, M.K.Rasulova, U.Sinchjou, Chzhen Yaven, S.U.Pulatova, I.N.Tyurin, T.Yu.Lesnikova, E.N.Sirota, N.V.Tikhonova, Yu.A.Kovalenko, O.E.Gavrilova, I.N.Saveleva, S.V.Kurenova, D.Chen, L.Chui, Chkhe Jin Hi, Jin A Chzhon, G.A.Ganieva, A.A.Iztaeva va boshqalar.

Ilmiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mavjud ishlanmalar va mahsulotlar orasida sovuqdandan himoya qilish xususiyatlari va yeyilishga chidamliligini ta'minlash uchun gidrokostyumning g'ovakli tuzilishi va dizaynini shakllantirishda materiallar va xomashyolarni qo'llashda cheklovlar mavjud. Shuningdek, ko'p

qatlamli g'ovak materiallar va gidrokostyumlarning funksional dizaynini shakllantirish va yuqori himoya ko'rsatkichlarini ta'minlash, ko'p qatlamli materiallarni shakllantirish mexanizmi, konstruktsiya va komponentlarni ilmiy asoslangan holda tanlash, gidrokostyumlarning issiqlik izolyatsiyasi va mustahkamlik xususiyatlarini hamda yuqori yeyilishga chidamliligini ta'minlash muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti "Kostyum dizayni" kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq GRNTI 64.29.71.64.33.81 "Yuqori funksional xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus buyumlarni kompleks loyihalash metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi xalqaro granti, F-7-94 "Akril oligomeri asosida reaksiya qobiliyatli kompozitsion materiallarning tuzilishi va xususiyatlarining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash" ilmiy granti, "Fan va taraqqiyot" DUK, Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ekstremal ekspluatatsiya sharoitlarida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi gidrokostyumning funksional dizayni va buyumning issiqlik saqlovchi (sovuqdan himoya qilish), mustahkamlik va yeyilishga chidamlilik xususiyatlarini oshirish uchun materialning g'ovakli strukturasi shakllantirish usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gidrokostyumlarni loyihalashtirish va tayyorlashning hozirgi holatini tahlil qilish;

g'avvoslik kostyumi uchun ishlatiladigan g'ovakli materiallarni o'rganish;

issiqlik izolyatsiyasi va tashqi omillar ta'siridan yeyilishga chidamliligi yuqori bo'lgan gidrokostyum materiallarini shakllantirish usulini patent izlash va ishlab chiqish hamda gidrokostyum uchun komponentlarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalarni nazariy jihatdan asoslash;

chuqur suv sharoitlarida texnik ishlarni bajarishda past harorat va yeyilishga chidamlilikdan himoya qilishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida neopren tipidagi g'ovakli materialdan tayyorlangan gidrokostyum, materiallar va paketlar, uskunalar, elastomer polimer kompozitsiya olingan.

Tadqiqotning predmeti yeyilishga chidamlilik, issiqlik-fizik jarayonlar va mustahkamlikka bo'lgan himoya xususiyatlarini hisobga olgan holda gidrokostyum tayyorlash uchun neopren turidagi g'ovakli materialni olish usuli, shuningdek, detallarni suvga chidamli biriktirish mexanizmi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-texnik ma'lumotlarni umumlashtirish uchun analitik usullar, matematik statistika usullari, tarkibiy tahlil, tajriba natijalarini rejalashtirish va qayta ishlash usullari, kompyuter grafikasi, eksperimental to'qimachilik materialshunosligi usullari, matematik modellashning asosiy qoidalari, ushbu usullarning mantiqiy tahlil va aniqlangan qonuniyatlarni umumlashtirish bilan kombinatsiyasi qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gidrokostyumning funksional xususiyatlariga ta'sir qiluvchi materialning tuzilishi, biriktiruvchi choklarning mustahkamligi, materialning elastiklik xossasi kabi ko'rsatkichlari ahamiyatlilik ko'effitsiyentlarini ekspert baholash asosida aniqlangan;

gidrokostyum uchun loyihalashtirilgan g'ovakli elastomer materialining ekspluatatsion va issiqlikdan himoyalash xususiyatlarini ta'minlovchi turli o'lchamdagi g'ovaklarning tartibli joylashuvi orqali yangi tuzilma yaratilgan va materialning g'ovaksimonligini ta'minlovchi ratsional tarkibi ishlab chiqilgan;

neopren turidagi g'ovakli materialning yangi tuzilishining fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda "odam-gidrokostyum-suv muhiti" tizimida dinamik muvofiqlik ko'rsatkichlari asosida gidrokostyum konstruksiyasi uchastkalarining orqa qismi uzunligi va texnologik ishlov berish usullari kabi ratsional parametrlari olingan;

materialning issiqlik saqllovchi (sovuqdan himoya qilish) xususiyatini uning turli o'lchamdagi g'ovaklarining tartibli joylashuvi tuzilmasiga bog'liqligi aniqlangan, shuningdek, takomillashtirilgan himoya xususiyatlariga ega bo'lgan gidrokostyum qobig'ining konstruktiv funksionaligini shakllantirish mexanizmi va tashqi mexanik ta'siri oqibatida yemirilishdan himoyalovchi funksional dizayni ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suv ostida mexanik ta'sirlardan yuqori elastiklik, issiqlik izolyatsiyasi, mustahkamlik va yeyilishga chidamlilik ko'rsatkichlariga ega neopren turidagi elastomer kompozitsion g'ovakli material olishning yangi usuli ishlab chiqilgan (IAP 2023 0463-sonli talabnoma bo'yicha ixtiroga patent №IAP 7753 23.08.2023y.);

suv ostida texnik ishlarni bajarish uchun mahalliy himoya uchastkalariga ega bo'lgan yangi funksional dizaynga ega gidrokostyum konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

suv ostida qutqaruv va texnik ishlarni bajarish uchun yeyilishga chidamliligi, mustahkamligi va issiqlik izolyatsiyasi yuqori bo'lgan gidrokostyumlarning model qatori ishlab chiqilgan (gidrokostyumning sanoat namunalariga patentlar № SAP 02245, № SAP 02452);

"PROdeep," ya'ni professional chuqurlik degan ma'noni anglatuvchi gidrokostyum uchun firma savdo belgisi ishlab chiqilgan (patent № MGU 47710).

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot yakunida aks etgan umumiy xulosalar tahliliy va tajriba-sinov natijalari, ilmiy tamoyillar, qarashlar, xulosa va tavsiyalarning o'zaro muvofiqligi hamda aprobat siya va joriy etish natijalari asosida shakllantirilgan. Bu natijalarning baholash mezonlari bo'yicha mosligi va tahlili, natijalarning adekvatligi va o'rganilayotgan fanlar doirasidagi muhokamalar va taqqoslashlarni hisobga olgan holda tadqiqot natijalarining qisman tahlili asosida ishlab chiqilganligi hamda hisoblangan va tajriba-sinov natijalarining mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'ovakli mahalliy uchastkalarni maqsadli joylashtirish orqali sovuqdan va tashqi mexanik ta'sirlardan yuqori himoya xususiyatlarini ta'minlaydigan neopren tipidagi g'ovakli materialni shakllantirishning yangi usuli va gidrokostyumning funksional dizayni nazariy asoslanganligi va ishlab chiqilganligi,

shuningdek, gidrokostyumning yeyiladigan uchastkalari topografiyasi va gidrokostyumning mexanik shikastlanishdan yuqori himoyasini ta'minlaydigan kuchaytirilgan strukturani mahalliy shakllantirish orqali materialning ishqalanishga chidamliligini oshirish usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida chuqur suv havzalarida ekspluatatsiya qilishga mo'ljallangan gidrokostyumning ratsional konstruksiyasi va samarali tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan, g'avvoslarning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlaydi, bu esa gidroinshootlar va FVV mutaxassislarining mehnat sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi, ularning ish unumdorligi va maxsus kiyimning ishonchligini oshiradi, shuningdek, uni kiyish muddatini uzaytiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Komponentlarini shakllantirish asosida yuqori fazoviy xususiyatlarga ega bo'lgan gidrokostyumning funksional dizaynini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suv ostida elastiklik, issiqlik izolyatsiyasi, mustahkamlik va yeyilishga chidamlilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan neopren turidagi elastomer kompozitsion g'ovakli material olish usuliga patent olingan (№IAP 7753 23.08.2023-yildagi № IAP 20230463-sonli talabnoma bo'yicha ixtiroga patent). Joriy etish natijasida ishning tezkorligi hisobiga samaradorlik 11% ga oshgan;

suv ostida qutqaruv va texnik ishlarni bajarish uchun yuqori ergonomik, yeyilishga chidamlilik, mustahkamlik, issiqlik izolyatsiyasi va funksional dizayn ko'rsatkichlariga ega bo'lgan gidrokostyum uchun patentlar (patent № SAP 02245, № SAP 02452) va "PROdeep," ya'ni "professional chuqurlik" nomli gidrokostyum uchun firma savdo belgisi olingan (patent № MGU 47710). Natijada loyiha ishlarining tezkorligi hisobiga samaradorlik 14% ga oshgan;

"Professional diving" MCHJ va "DIGITAL TEXTILE" MCHJ, "XUDOYBERDIYEV DONIYORVALIEVICH" XK tikuvchilik korxonalarida gidrokostyum ishlab chiqarishda joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 27-avgustdagi 03/25-2277-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya tadqiqotlari natijalarining joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini 16,8% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va ilmiy seminarlarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 4 tasi Scopus xalqaro indekslangan ma'lumotlar bazasiga kirgan nashrlarda va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Mazkur dissertatsiya ishi bo'yicha ishlanmalar bitta ixtiro patenti, ikkita sanoat namunasi patenti, bitta firma savdo belgisi patenti bilan himoyalangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va usullari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Gidrokostyumning funksional xususiyatlarini ta'minlash maqsadida uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish"** deb nomlangan birinchi bobida gidrokostyumlar yaratish sohasidagi mavjud tadqiqotlar va ishlanmalarning tahliliy sharhi amalga oshirilgan. Ishonchlilik, chidamlilik va suv osti faoliyati sharoitida foydalanish xavfsizligi yuqori bo'lgan gidrokostyumlarni loyihalashning nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqilgan.


G'avvoslar kostyumining ishonchliligini vizual baholash va mutaxassislar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda ishlatilayotgan g'avvoslar kiyimlari funktsionallik va ishonchlilikni ta'minlash nuqtai nazaridan sezilarli kamchiliklarga ega. Shu bilan birga, ishonchlilik ko'p jihatdan asosiy detallarning tarkibiy qismlarini shakllantirish usuliga va kostyumni tayyorlash texnologiyasiga bog'liq.

Himoya xususiyatlari yuqori bo'lgan gidrokostyumni ishlab chiqish uchun mutaxassis-professionallar o'rtasida anketa so'rovi o'tkazildi. Ekspert sifatida Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari, professional xorijiy va mahalliy g'ovvoslar ishtirok etishdi. Anketa so'rovi on-line formatda va shaxsiy intervyu orqali o'tkazildi. Suv ostida ishlashda gidrokostyumlar turli mexanik ta'sirlarga uchrashi hisobga olinib, aniqlangan asosiy ko'rsatkichlar asosida gidrokostyumning ishonchliligi va sifatiga ta'sir etuvchi quyidagi asosiy omillar (X_n) ajratib olindi ($n=8$): X_1 -konstruksiya; X_2 -qo'shimcha himoya elementlari; X_3 -elastiklik (cho'zilishi); X_4 -material strukturasi (g'ovaklik); X_5 - yeyilishga chidamlilik; X_6 -qistirma (прокладка) mavjudligi; X_7 - dizayn va qo'shimcha aksessuarlar; X_8 -biriktiruvchi choklarning mustahkamligi.

Ekspertlar tomonidan omillarning ahamiyatini darajali baholashdan so'ng, eng muhimlari aniqlandi. Xususan, X_4 omili $\gamma_4=0,25$ koeffitsiyenti bilan eng ahamiyatli va salmoqli bo'lib, qolgan qiymatlardan 2 baravar va undan ortiq yuqori. Ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda birlashtiruvchi choklarning mustahkamligini ifodalovchi X_8 ($\gamma_8=0,227$) ko'rsatkichi turadi. Uchinchi o'rinda esa X_3 ($\gamma_3=0,147$) materialning elastikligi (cho'ziluvchanligini) ifodalaydi. X_5 ko'rsatkichi esa yeyilishga chidamlilikni ($\gamma_5=0,114$) aks ettiradi (1-rasm).

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu omillar loyihalanayotgan gidrokostyumning funksional xususiyatlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi va shuning uchun bizning

keyingi tadqiqotlarimiz aniqlangan eng muhim omillar yo'nalishlari bo'yicha olib borildi.



1 - rasm. Ko'rib chiqilayotgan omillar uchun ranglar diagrammasi

Dissertatsiyaning ikkinchi "Gidrokostyum materiallar paketini ishlab chiqish va uning funksional xususiyatlarini ta'minlash uchun fizik-mexanik ko'rsatkichlarini tadqiq qilish" bobida gidrokostyum materiallari paketining funksional xususiyatlarini ta'minlash uchun yangi elastomer kompozitsion g'ovakli material, neopren turini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bu material yuqori elastiklik, issiqlik izolyatsiyasi, yeyilishga chidamlilik va suv ostidagi gidrostatik bosimdan samarali himoya qilish, shuningdek, tadqiqot usullarini tanlash va asoslash haqida tushuntirilgan.

Ikki qatlamli elastomer material yaratish uchun, tashqi tomondan katta va ichki tomondan kichik g'ovaklar bilan tuzilgan materialni yaratishda quyidagi komponentlar ishlatilgan: Butil kauchuk 100,0 mass. ch., stearin kislota 2,0-3,0 mass. ch., rux oksidi 4,5-5,5 mass. ch., asetona anilin H 0,5-1,5 mass. ch., poroform 5,5-7,5 mass. ch., plastifikator (dioktil sebatsinat) 10-13 mass. ch., tiuram 1,0-2,0 mass. ch., kaptaks 0,5-1,0 mass. ch., yumshatgich (zig'ir yog'i) 22-25 mass. ch., texnik uglerod DG-100 20-23 mass. ch., oltingugurt 0,8-1,5 mass. ch., aromatizator 1-2 mass. ch.

Ushbu texnik yechimning vazifasi g'avvoslarni gidrostatik bosim ta'siridan himoya qiluvchi chuqur suv osti g'avvoslik kostyumlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan ikki qatlamli g'ovakli elastomer materialini olish usuli va tarkibini ishlab chiqishdan iborat.


Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va patent izlash asosida g'ovakli elastomer kompozitsiyani ishlab chiqishning yangi usuli ishlab chiqilgan. Shuningdek, geterogen tuzilishli neoprenning kompression xususiyatlari tasvirlarini hisoblash modellashtirish va tahlil qilish amalga oshirildi.

Tadqiqot g'ovak hosil qiluvchining miqdori penorezinning morfologik va mexanik xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini berdi. Haqiqiy 3D strukturalarni modellashtirish shuni ko'rsatdiki, g'ovak hosil qiluvchi moddaning yuqori miqdori bo'lgan g'ovakli elastomer namunalarida g'ovaklarning bir xil morfologiyasi va strukturaviy nuqsonlarning kamroq chastotasi kuzatildi. Bundan tashqari, mikrodarajadagi chekli elementlar usuli (ChEU) tahlili g'ovak hosil qiluvchining yuqori miqdorida kuchlanish va mikrodeformatsiyalarning maksimal konsentratsiyasining sezilarli darajada pasayishini aniqladi (2-rasm).

Ushbu tadqiqotda o'zgaruvchan omil sifatida g'ovakli materialning g'ovak geometrik parametrlari tanlangan. Qolgan omillar (g'ovakli material tarkibidagi taqsimlanish chastotasi, taqsimlanish qonuniyati, g'ovaklar morfologiyasining xususiyatlari, g'ovaklar ichidagi gazsimon moddaning tarkibi, xomashyo tanlash va g'ovakli material sintezi usullari) materiallar parametrlarining muayyan qiymatlarini hisobga olgan holda o'zgarmas qilib belgilangan. Qiymatlar jahon bozorida mavjud bo'lgan o'xshash materiallarni keng qamrovli tahlil qilish hamda neopren turidagi material to'plamlarining fizik-mexanik va tuzilmaviy xususiyatlarini mustaqil ravishda sinovdan o'tkazish natijalari asosida aniqlangan.

Neopren tipidagi materiallarining fizik-mexanik xarakteristikalarini Instron seriyali 4411 rusumli uzish mashinasida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini "yukcho'zilish" bog'lanishlari ko'rinishida shakllantirish imkonini berdi, ular 3-rasmda grafik ko'rinishda keltirilgan. Fizik-mexanik xarakteristikalarni tadqiq qilish natijalari hisoblash modellashtirish tizimiga eksport qilindi.


Bosim chegarasi (interface pressure) odamning oyog'ining pastki qismiga bo'lgan bosimni ifodalaydi va kiyim tomonidan hosil bo'lgan siqilish bosimi va sensorning chuqur botishi natijasida yuzaga keladigan gidrostatik bosimning yig'indisiga teng.



2-rasm. Mikro darajadagi ChEU tahlili


3-rasmda geterogen (2-model) va gomogen strukturali (3-model) namunalarning to'liq deformatsiyalari (egilishlari) taqqoslangan. Modellashtirish natijalariga ko'ra, berilgan tashqi bosimda bir jinsli neopren g'ovak namunasi qalinligi bo'yicha taxminan 0,91 mm ga, geterogen tuzilishga ega bo'lgan namuna esa taxminan 0,79 mm ga kamayadi.

G'ovakli material (neopren kauchuk) materialining zaruriy xususiyatlari ANSYS Workbench v14.0 STUDENT dasturiy ta'minot to'plamining materiallar kutubxonasidan olingan. Neopren kauchukning kuchlanish-deformatsiya egri chiziqlari, shu jumladan bir o'qli, ikki o'qli sinov ma'lumotlari va siljishga sinov ma'lumotlari 4-rasmda ko'rsatilgan.




3-rasm. G'ovakli materialning samarali xususiyatlarining geometrik parametrlariga gidrostatik bosimning ta'siri bo'yicha sonli tajribalar

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, neopren kauchuk chiziqli bo'lmagan material bo'lib, juda past qattiqlikka ega. Loyihalashda g'ovakli materialning o'rta qismi trikotaj asosidagi materiallar paketining ham yuqori, ham pastki qismi bilan birlashtirilishi nazarda tutilgan.



4-rasm. Inston uskunasi o'tkazilgan "neopren" turidagi materialning uzilish kuchi sinovi natijasi




5-rasm. Neopren kauchukning kuchlanish-deformatsiya egri chiziqlari, shu jumladan bir o'qli, ikki o'qli sinov ma'lumotlari va siljishga sinov ma'lumotlari

Hisoblash modellashtirishning asosiy natijalari ekvivalent kuchlanishlarning taqsimlanish xaritalari (fon Mizes bo'yicha), o'rganilayotgan material namunalariidagi umumiy deformatsiyalar xaritalari hisoblanadi. Umumiy deformatsiyalarning olingan natijalariga misollar 6-7-rasmlarda keltirilgan va ishda ilgari surilgan tadqiqot gipotezasining asosiy qoidalariga erishilganligini ko'rsatadi.


G'ovakli material strukturasi g'ovaklar taqsimlanishining geterogenligini ta'minlash katta diametrli g'ovaklar joylashgan nuqtalarda kuzatiladigan deformatsiya qiymatlarining ortishi ($Me = 0,79$ mm. dan $Me = 0,91$ mm. gacha) hodisasini hisobga olgan holda 15% oralig'ida materialning umumiy deformatsiyalarini kamaytirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, neopren tipidagi ikki qatlamli g'ovakli materiallarning issiqlik o'tkazuvchanligiga g'ovaklikning ta'siri bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. G'ovak

neoprenning issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchash 1,3 MPa gidrostatik siqishda amalga oshirildi. Olingan namunalarning g'ovak neoprenining issiqlik o'tkazuvchanligidagi aniqlangan o'zgarishlar shuni ko'rsatdiki, gidrostatik bosimning oshishi bilan o'rganilgan ikkita materialning issiqlik o'tkazuvchanligi oshadi.



6-rasm. Tadqiqot gipotezasining asosiy qoidalariga erishilganligini ko'rsatadigan geterogen tuzilmaning umumiy deformatsiyalari natijalari







7-rasm. Tadqiqot gipotezasining asosiy qoidalariga erishilganligini ko'rsatadigan gomogen tuzilmaning umumiy deformatsiyalari natijalari

O'rganilgan namunalarning qalinligi 6,8 dan 12,18 mm gachani tashkil etdi. Bunday materiallarning g'ovakli tuzilishi issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun ularning mikrostrukturaviy tadqiqotlari o'tkazildi.

Neopren hajmi strukturasidagi g'ovaklar turi va parametrlarining geometrik tahlili shuni ko'rsatdiki, ular diametrining o'rtacha qiymatlari konsentratsiyalanmagan diapazonga ega va hajm bo'yicha 12 dan 70 mkm gacha va undan ortiq o'zgarishi mumkin. G'ovakli materiallar g'ovakligi parametrlarining ularning issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'sirining o'rnatilgan bog'liqligi kerakli g'ovaklar va tegishli talab qilingan g'ovaklikni olish orqali asosiy materiallar tuzilishini shakllantirish bosqichidayoq loyihalashtirilayotgan mahsulotning zarur issiqlik izolyatsiyasining maqsadli darajasini boshqarish vositasi ekanligi asoslangan.

GOST 27110-86 bo'yicha UMR-2 uskunasi elastomer kompozitsion materialning elastiklik xususiyatlari va g'ovakligi o'rganildi, shuningdek, Koreya-O'zbekiston o'quv-amaliy to'qimachilik texnoparki bazasida "SAMWON" tizimlarining video-mikroskopida g'ovaklik koeffitsiyentlari aniqlandi (8-rasm).

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, g'ovaklik ko'rsatkichi vulkanizatsiya sharoitlariga bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Xususiyatlarni kompleks baholash uchun elastomer kompozitsiyaning elastikligini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi va vulkanizatsiyalangan namunalarning birlik kesim yuzasi uchun g'ovaklik koeffitsiyenti taklif qilindi. Birinchi tajribada to'rtta aralashma 15 daqiqa davomida vulkanizatsiya qilindi, ikkinchi tajribada aralashmalar 20 daqiqa davomida vulkanizatsiya qilindi, uchinchi tajribada aralashmalar 25 daqiqa davomida vulkanizatsiya qilindi. Eng kam vulkanizatsiyalangan elastomer kompozitsiya eng elastik ekanligi aniqlandi. Qo'shma material va elastomer kompozitsiyaning yopishqoqligi yuqori.



8-rasm. Elastiklik bog'liqligi (shartli birlikda) (a), g'ovakligi (mkm) (b), shuningdek vulkanizatsiya davomiyligidan g'ovaklar o'lchamlari (v, g)

Bir xil turdagi g'ovakli materiallarning g'ovaklik parametrlarining ularning issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan, loyihalalanayotgan tikuv mahsulotining zarur issiqlik izolyatsiyasi darajasini boshqarish vositasi ekanligi asoslab berildi. Bu boshqaruv asosiy materiallar tuzilishini texnologik shakllantirish bosqichida kerakli g'ovaklar va tegishli g'ovaklikni hosil qilish orqali amalga oshiriladi (9-rasm).

Ushbu tenglama asosida bir qatlamli g'ovakli materiallar uchun bog'liqlik o'rnatildi:

$$y = -0,0025x + 0,2436$$


$$R^2 = 0,8838$$

Ushbu tenglama asosida ikki qatlamli g'ovakli materiallar uchun bog'liqlik o'rnatildi:

$$y = -0,0024x + 0,2222$$

$$R^2 = 0,9612$$

bu yerda R^2 - regressiya modeli sifatini baholash uchun ishlatiladigan determinatsiya koeffitsienti.



9-rasm. G'ovaklikning issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'siri a) neopren tipidagi bir qatlamli g'ovakli materiallar b) neopren tipidagi ikki qatlamli g'ovakli materiallar

Olingan natijalar suv osti jihozlari bozori uchun g'ovakli materiallarni hamda mahsulotlarini loyihalash texnologiyalarini rivojlantirishda muhim bo'g'in sanaladi.

Neopren tipidagi g'ovakli materialning fizik-mexanik xossalari (yuza zichligi, polotnning kengligi bo'yicha cho'ziluvchanligi, uzilish kuchi, ho'l ishlov berishdan keyin chiziqli o'lchamlarining o'zgarishi (kengligi va uzunligi bo'yicha), suvga chidamliligi, namligi, biriktiruvchi chokning uzilishdagi uzayishi, shuningdek biriktiruvchi chokning suvga chidamliligini aniqlash) bo'yicha tadqiqotlar "O'zbek-Turk Test Markazi" MCHJ QK sertifikatlash laboratoriyasi sharoitida va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi ilmiy-tajriba laboratoriyasida o'tkazildi. Ushbu tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

G'ovakli materialning fizik-mexanik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar va shunga o'xshash materiallarning eng yaxshi namunalari ko'rsatkichlari bilan qiyosiy baholash shuni ko'rsatdiki, gidrokostyum uchun tayyorlangan materialning asosiy xususiyatlari bo'yicha ustunlik mavjud. Xususan, sirt zichligi 9,9% ga, cho'ziluvchanligi 12,1% ga, uzilishga chidamliligi 21,3% ga va namlikka bardoshliligi 21,4% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Yangi tuzilishga ega bo'lgan SRB 7 mm markali namunalari va neopren turidagi g'ovakli materialning fizik-mexanik xususiyatlarini laboratoriya tadqiqotlarini qiyosiy baholash

№	Parametrlar nomi (ko'rsatkichlar)	Qiymat	
		SRB namunasi	Yangi namuna
1	Yuza zichlik (GOST 3812-72), g/m ² :	582,5	640,2
2	Polotnoning cho'ziluvchanligi (EN ISO 13934-1) % da: kengligi bo'yicha: uzunligi bo'yicha:	9,1 4,9	10,2 5,5
3	Uzilish kuchi, (EN ISO 13934-1), N:	615,1	746,2
4	Suvga chidamlilik, (GOST 3816-81) mm suv ust.:	CB. 1800	CB. 1800
5	Namlik, (GOST 8845-87) %:	0,42	0,51
6	Ishqalanish, (ISO 12947-1), sikl	10000 sikldan yuqori	10000 sikldan yuqori

Dissertatsiyaning "Ekspluatatsion xossalari yuqori bo'lgan gidrokostyum konstruksiyasi va materiallar paketini shakllantirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish" deb nomlangan uchinchi bobi gidrokostyum modellar qatorini ishlab chiqish va neopren turidagi g'ovakli materialdan yangi tuzilishdagi buyum detallarini biriktirishning samarali texnologiyasi, o'lcham belgilarini o'lchash dasturi, gidrokostyum konstruksiyasini hisoblash va qurish, xarakterli harakatlarda uning ergonomik muvofiqligini tadqiq qilish, shuningdek biriktiruvchi choklarni bajarishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar asosida gidrokostyumni loyihalash va ishlab chiqarish konsepsiyasi taklif etildi (10-rasm).

Taklif etilgan konsepsiya asosida, ishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, g'ovak materiallarning xususiyatlarini hisobga olgan holda modulli bo'linishni qo'llash usullari va ishlab chiqilgan topografiyalari asosida mahalliy uchastkalarni o'z ichiga olgan g'ovakli materiallardan tayyorlangan gidrokostyumlarning yangi model qatori taklif etildi.

Taklif etilgan konsepsiya asosida, ishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, g'ovak materiallarning xususiyatlarini hisobga olgan holda modulli bo'linishni qo'llash usullari va ishlab chiqilgan topografiyalari asosida mahalliy uchastkalarni o'z ichiga olgan g'ovakli materiallardan tayyorlangan gidrokostyumlarning yangi model qatori taklif etildi. FVV xodimlari uchun ishlab chiqilgan gidrokostyum modellari eskizlari Procreate dasturi yordamida bajarildi. Lokal uchastkalarni kuchaytirish uchun fleks bosma qo'llanilgan, bunda elastik sirt hosil qiluvchi va uzilishga hamda mexanik ta'sirlarga yuqori mustahkamlik beruvchi, shuningdek suv bilan kontaktda bo'lganda barqaror bo'lgan maxsus qo'shimchalar qo'shilgan plastoizol polimerlar qo'llanilgan. Taklif etilgan gidrokostyum modellari uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining yangi gidrokostyum

modellari uchun sanoat namunasiga patentlar olingan (№ SAP 02245, № SAP 02452) (11-rasm).



10-rasm. Gidrokostyumni loyihalash va ishlab chiqarish konsepsiyasi



11-rasm. Lokal qismlari kuchaytirilgan gidrokostyum modellari (№ SAP 02245, № SAP 02452)



Gidrokostyumni loyihalash jarayonida ishlab chiqaruvchi (muallif)ni aniqlash uchun qo'llaniladigan va kostyum haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'zida kodlangan holda mujassam etgan tovar belgisi (brend) yaratildi (12-rasm).

12-rasm. tovar belgisi (№MGU 47710)

Brendning asosiy konsepsiyasi mahsulot nomida uning qo'llanilish sohasini ko'rsatishdir. Uning ijodiy manbai dengiz va uning to'lqinlaridir. "ProDeep" logotipi ikki so'zdan iborat bo'lib, kombinatsiyalangan belgi hisoblanadi. Pro- (ingliz tilidan tarjima qilinganda professional), Deep (ingliz tilidan tarjima qilinganda chuqurlik), bu butunlay professional chuqur suvga sho'ng'ishni anglatadi.

Texnik va qutqaruv ishlarini olib borish uchun gidrokostyum konstruksiyasini qurish maqsadida g'avvoslar tomonidan eng ko'p bajariladigan 4 ta asosiy ergonomik holatlar aniqlandi. Shu bilan birga, ularning o'lcham belgilarining dinamik ta'sir qiymatlari ham aniqlandi (2-jadval).

